



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

BUGUNGI KUN IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYANING ROLI

Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich

*Namangan davlat universiteti iqtisodiyot fakulteti
"Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrası
katta o'qituvchisi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kun iqtisodiyotni rivojlanishda zamonaviy axborot kommunikatsiyaning roli haqida fikr bildirilgan. Raqamli iqtisodiyotni keng joriy qilish va uni qo'llab-quvvatlash mamlakatimizning uzoq muddatli rivojlanish rejasida asosiy o'rin tutgani sababli iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamlı chora-tadbirlar belgilab olindi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, mamlakatimizda yangi elektron hujjat aylanish tizimlari joriy etilmoqda, elektron to'lovlar rivojlanmoqda va elektron tijorat rivojlanmoqda, sohadagi me'yoriy-huquqiy baza takomillashtirilmoqda, elektron infratuzilma va tijorat shakllantirilmoqda, raqamli transformatsiyaga iqtisodiyotning barcha sohalarida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani haqida to'xtalib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** jahonda iqtisodiyoti, zamonaviy axborot, raqamli texnologiyalar, Raqamli texnologiyalar.*

Bugungi davrda jahonda iqtisodiyotni rivojlanishda zamonaviy axborot kommunikatsiyaning roli va ahamiyati yana ortib bormoqda. Bugungi kun avlodi raqamli texnologiyalar - sun'iy intellekt, robototexnika, simsiz aloqa texnologiyalari asosida biznes va ijtimoiy faoliyatni rivojlantirishning yangi to'lqini kuzatilmoqda. Yangi texnologiyalar Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga katta hissa qo'shishi mumkin, biroq biz kutilgan ijobiy natijalarga erisha olmasligimiz mumkin. Raqamli texnologiyalarning ijtimoiy va iqtisodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishni istasak, kutilmagan oqibatlarga yo'l qo'ymasdan, davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish darkor. Bugun jamiyatda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora ortmoqda. Ularning keng joriy qilinishi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari hozirgi zamonda har bir davlat uchun jiddiy hayotiy masalaga aylangan. Ekspertlar fikricha, kelgusi 3 yilda iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali dunyodagi 22 foiz ish o'rni axborot texnologiyalari yordamida yaratiladi. Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida raqamli iqtisodiyotga faol o'tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Shuningdek, joriy yilning Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili deb e'lon qilingani bejiz emas. Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash borasida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi oldida o'ta muhim va dolzarb vazifalar qo'yilgan. Raqamli iqtisodiyot, birinchi navbatda, korrupsiyadan xoli hududda ishlash imkoniyatini yaratadi. U "hufiyona



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

iqtisodiyot"ning asosiy kushandasidir. Chunki raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi. Kerak paytda ma'lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biror ma'lumotni bekitish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to'liq axborot bermaslikning iloji qolmaydi, Buning natijasida esa iqtisodiyotga yo'naltirilgan qonuniy mablag'lar joy-joyiga sarflanadi. Ayniqsa, soliqlarning o'z vaqtida to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi, byudjet taqsimoti oshkoraligi, ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan mablag'lar, maktablar, shifoxonalar, yo'llarga ajratilgan pullar to'liq o'z manziliga maqsadli yetib borishiga zamin yaratiladi. Shu bois, raqamli texnologiyalarni bizni taraqqiyotga eltadigan eng qisqa yo'l, deya atash g'oyat oqilona va odilona ta'rif bo'ladi.

Raqamli iqtisodiyotni keng joriy qilish va uni qo'llab-quvvatlash mamlakatimizning uzoq muddatli rivojlanish rejasida asosiy o'rin tutgani sababli iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilab olindi. ushbu vazifalarni amalga oshirish, mamlakatimizda yangi elektron hujjat aylanish tizimlari joriy etilmoqda, elektron to'lovlar rivojlanmoqda va elektron tijorat rivojlanmoqda, sohadagi me'yoriy-huquqiy baza takomillashtirilmoqda, elektron infratuzilma va tijorat shakllantirilmoqda, raqamli transformatsiyaga iqtisodiyotning barcha sohalarida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Raqamli texnologiyalarning ta'siri ham global, ham mahalliy darajada sezilmoqda. Raqamli iqtisodiyot yangi tarmoqlar majmuasi sifatida jahon iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan qismi sanaladi. Yangi texnologiyalar tashkil etilgan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining ayrim jihatlariga transformativ ta'sir ko'rsatadi, bu asosan ish mexanizmlarini - aloqa yoki sanoat mashinalarini raqamli mexanizmlarga almashtirish, shuningdek ularni yanada modernizatsiya qilishdan iborat.

Vaqt o'tishi bilan davlat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va uni keyingi bosqichlarga olib chiqish zarurati ortib bormoqda. Birinchi o'rinda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi va samaradorligini oshirish, milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar yordamida fuqarolarning huquq va erkinliklarini to'liq kafolatlaydigan axborot jamiyatini shakllantirish, to'plangan ma'lumotlardan qimmatli mahsulotlar yaratish hamda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor tarmoqlarida boshqa davlatlar bilan raqobatlashish imkonini beruvchi innovatsion muhitni yaratish, iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish, elektron hukumatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotda tarmoq tuzilmalarining rivojlanishi bilan yangi tuzilmalar, ishlab



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

chiqarish va xo'jalik faoliyatini tashkil etishning yangi shakllari, sanoat iqtisodiyotidagi o'zgarishlarning moslashuvchan tarmog'ini yaratish ko'zda tutilmoqda. Tarmoq shakllarining iqtisodiy afzalliklari ularning o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslashish qobiliyatidadir. Umuman olganda, mehnat va kapitalni intellektuallashtirish zamonaviy iqtisodiyotning axborot salohiyatini oshirishdan iborat

Bugungi kunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari raqamli tizimga o'tmoqda. Ayrim korxonalar uchun Internet juda muhim aloqa va savdo kanaliga aylandi. Turizm sektorini misol qilib oladigan bo'lsak, iste'molchilar asosan transport chiptalarini sotib olish yoki mehmonxonalarni bron qilish uchun Internetdan foydalanadilar.

Bugungi zamonaviy axborot texnologiyalari raqamli iqtisodiyotda samaradorlik va mehnat samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning ko'pgina tarmoqlarida xarajatlarni kamaytirishda muhim rol o'ynamoqda. Raqamli iqtisodiyot bilan bog'liq o'zgarishlar ishlab chiqaruvchilar va xaridorlar uchun yangi bozor qoidalarini yaratmoqda. Natijada, kompaniyalar yangi raqobat strategiyalarini izlashlari va raqobatbardosh samaradorligini oshirishlari zarur.

Xulosa oqilib aytish mumkinki, iqtisodiyotni rivojlanishda zamonaviy axborot kommunikatsiyaning roli yanada oshirish bugungi kun talabiga aylanmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli iqtisodiyot tomonidan yaratilgan virtual muhitning o'zi ishbilarmonlik muhitining kengayishiga olib kelmoqda. Biroq ishbilarmonlik muhitini kengaytirishda qonunchilikni rivojlantirish, malakali mutaxassislarni jalb etish, infratuzilmani yaxshilash, korrupsiyaga qarshi kurashish kabi omillarning ahamiyatini e'tirof qilish darkor. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot hozirgi vaqtda moddiy iqtisodiyotdan intellektual iqtisodiyotga yoki bilimga asoslangan iqtisodiyotga o'tish jarayonida o'zini namoyon qilmoqda, sifat o'zgarishlarini ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.S.G'ulomov, A.T.Shermuxamedov, B.A.Begalov. «Iqtisodiy informatika» T. «O'zbekiston», 1999 y, 9-87, 139-207, 267-309, betlar.
2. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limning me'yoriy hujjatlari. T:2002.138 b.
3. A.Ortiqov, A.Mamatqulov «IBM PC kompyuterlaridan foydalanish». T. 1992 y. 40-bet 4.M.M. Aripov, J.O'. Muhammadiyev. Informatika, information texnologiyalar.